Valikulov Sherzod Zaynitdinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA MARKETPLEYSLARNI SHAKLLANTIRISH: INVESTITSIYALAR, XARAJATLAR VA FOYDA.....	1029
Axmedova Dilshoda Xayrulla qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MARKETING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	1033
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich, Muminova Shahlo Madaminjon qizi	
OLIY TA'LIMDA GENDER TENGLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1039
Xaydarova Sayyora	
ANALYZING THE COMPETITIVE ADVANTAGES OF SOUTH KOREA IN GLOBAL MICE TOURISM: HISTORICAL AND CULTURAL DIMENSIONS.....	1043
Ortikova Sabohat, Gulomova Mukhlisa, Ochilova Hilola Farmonovna	
MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)	1050
Usmanova Gulida Valiyevna	
ETHICAL ASPECTS OF ECOTOURISM: BALANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND MORAL RESPONSIBILITY.....	1055
Gulbakhor Sattarovna Abdullakhanova	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	1062
Sobirov Abdurasul Abdugafarovich	



KADRLAR BOSHQARUVIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1068
Urazov Sadulla Shodiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY JINOYATLARNING OLDINI OLISSHA KOMPLAENS-AZORATNING ROLI.....	1074
Zokirov Ismoiljon Ibroximovich	
AGROSERVIS SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI	1078
Pardayev Mamayunus Qarshibayevich, Feruz Nematullayevich Abilov	
KO'MIR UCHUVCHI KULI ASOSIDAGI FLY ASH BETON VA GEOPOLIMER MATERIALLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN IQTISODIY VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH	1083
Muradov Botir Xayat	
КРЕАТИВНАЯ ЭКОНОМИКА В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	1091
Рахимова Манзура Хамид кизи	
DUE DILIGENCE IN AUDITING AS A FACTOR ECONOMIC EFFICIENCY IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	1098
Sodikov Dilmurod	
MAJBURIYATLAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1102
Ergasheva Vasila Abdumajitovna	
ИННОВАЦИОННЫЕ МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ И ПРОЦЕССЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1106
Рахимова Тамила Баходур кизи	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1113
Abdusattarova Dildora Bohodirovna	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH BORASIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1120
Djurayeva Lola Abdugabbarovna	
HUDUDLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA DAVLAT BUDJETIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1125
Egamnazarova Gulnoza Xolmurod qizi	
O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI ISTIQBOLIDA BARQAROR RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI HAMDA ESG INDIKATORLARINI JORIY ETISH	1129
Mirzaaxmedova Nodira Asqarali qizi, Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi	
O'ZBEKISTONDA KREDIT VA MOLIYAVIY TIZIMNI MODERNIZATSIYALASH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	1135
Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich	
O'ZBEKISTON FRANCHAYZING BRENDLARINING XALQARO BOZORLARDA IMIJINI MUSTAHKAMLASHDA ZAMONAVIY BRENDUKLAR YARATISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI	1140
Xodjayev Anvar Rasulovich	
MINTAQANING INVESTITSIYA OQIMLARI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK TAHLILI	1147
G'oyibnazarov Muxammad Xamidbekovich	
O'ZBEKISTON AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI VA IMKONIYATLARI	1152
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	1157
Xakimov Akbar Anvarovich	



TIJORAT BANKLARI XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1162
Atamuradov Bozorboy Berdimuratovich	
O'ZBEKISTONDA MOLIIYAVIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	1168
Sayitbayev Shermirza Datkamirzaevich	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ БЮДЖЕТОВ ФТИЗИАТРИЧЕСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ ПРИ ПЕРЕХОДЕ К ОПЛАТЕ ПО КЛИНИКО-ЗАТРАТНЫМ ГРУППАМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1173
Эрматов Зоҳид Шавкатович	
SUSTAINABLE TOURISM IN KARAKALPAKSTAN: LINKING CULTURE, COMMUNITIES, AND ECOLOGY.....	1179
Indira Ermekebaeva	
TARIFLASH VA REZERVLAHNING ILMIY-AMALIY MODEL (O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN).....	1184
Maxmudov Komoliddin Rozmetovich	
XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	1188
Akmalova Ziyoda Doniyorovna	
ECONOMIC EFFECTS OF GASTRONOMIC TOURISM: AN ANALYSIS OF TOURISTS' FOOD EXPENDITURE PATTERNS.....	1193
Iroda Abdieva G'ayrat kizi	
WAYS OF IMPROVING AGRITOURISM IN UZBEKISTAN	1198
Ruxangiz Mirfayzovna Mavlonova, Istamkhuja Olimovich Davronov	
TA'LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI.....	1203
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1208
Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISH: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR.....	1213
Zokirov Fayzullo Maxamatovich	
ЦИФРОВОЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПРОДВИЖЕНИЯ БРЕНДА НОВОГО УЗБЕКИСТАНА НА МЕЖДУНАРОДНОМ ТУРИСТИЧЕСКОМ РЫНКЕ.....	1219
Суюнова Камилла Бахромовна, Файзуллаев Аслиддин Сафар угли	
ТЕОРИЯ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО ВЫБОРА: ОБЗОР КЛАССИЧЕСКИХ ПАРАДИГМ, МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫХ ПОДХОДОВ И СОВРЕМЕННЫХ ВЫЗОВОВ.....	1223
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К МОНЕТАРНОЙ ПОЛИТИКЕ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ИНФЛЯЦИЮ И ЗАНЯТОСТЬ	1227
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Асадова Шоҳида Азаматовна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TAKOFUL SUG'URTA FONDLARINI SHAKLLANTIRISH.....	1232
Alimov Sherzod Choriyevich	



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TAKOFUL SUG'URTA FONDLARINI SHAKLLANTIRISH

Alimov Sherzod Choriyevich

Termiz davlar universiteti Iqtisodiyot fakulteti

“Moliya” kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0003-8669-1833

Annotatsiya. Ushbu maqola yashil iqtisodiyot tamoyillarini takoful sug'urta modeliga integratsiya qilish orqali sug'urta kompaniyalari tomonidan taqdim etiladigan takoful fondlarining barqaror sug'urta fondlarini shakllantirish mexanizmlarini o'rganadi. Takoful islomiy sug'urta fondlarini rivojlantirish va shakllantirish orqali islomiy sug'urta xizmatlarining mohiyati, ahamiyati va nazariy asoslari yoritib berilgan. Shuningdek takofulning islomiy moliya prinsiplari (mutualite, adolat va xavfni taqsimlash) yashil loyihalarni moliyalashtirishda qanday qo'llanilishi, fondlarning tuzilishi, risklarni boshqarish va O'zbekiston sharoitidagi amaliy misollar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Takoful fondlari, yashil iqtisodiyot, takoful tizimi, islom moliyasi, islom sug'urtasi, ribo, g'arar, maysir, foyda taqsimoti.

Abstract. This article examines the mechanisms for the formation of sustainable insurance funds of takaful funds provided by insurance companies by integrating green economy principles into the takaful insurance model. The essence, importance and theoretical foundations of Islamic insurance services through the development and formation of takaful Islamic insurance funds are highlighted. It also examines how the Islamic financial principles of takaful (mutuality, fairness and risk sharing) are applied to financing green projects, the structure of funds, risk management and practical examples in the conditions of Uzbekistan.

Key words: Takaful funds, green economy, takaful system, Islamic finance, Islamic insurance, usury, gharar, maysir, profit sharing.

Аннотация. В данной статье рассматриваются механизмы формирования устойчивых страховых фондов такафула, предоставляемых страховыми компаниями, путем интеграции принципов «зеленой экономики» в модель страхования такафул. Подчеркиваются сущность, важность и теоретические основы исламских страховых услуг на примере развития и формирования исламских страховых фондов такафула. Также рассматривается применение исламских финансовых принципов такафула (взаимность, справедливость и разделение рисков) к финансированию «зеленых» проектов, структура фондов, управление рисками и практические примеры в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: фонды такафула, зеленая экономика, система такафула, исламские финансы, исламское страхование, ростовщичество, гарар, майсир, распределение прибыли.



KIRISH

Yashil iqtisodiyot - ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot hisoblanadi. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liq, lekin asosan siyosiy termin sifatida foydalaniladi. ¹Yashil iqtisodiyot - uglerod izini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va iqlim o'zgarishiga moslashuvni ta'minlovchi iqtisodiy modeldir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 04-oktabrdagi "2019 - 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori (PQ-4477)² mamlakatni 2030-yilga qadar issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 10 foizga qisqartirish miqdoriy majburiyatini maqsad qilgan. Strategiyaning yo'nalishlari sifatida iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish, energiya resurslari iste'molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash, "Yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Takoful (arab. "kafolat") – islomiy shariatga asoslangan o'zaro sug'urta tizimi bo'lib, ishtirokchilar bir-biriga xavfni taqsimlaydi, foiz va qimor taqiqlanadi. Yashil iqtisodiyot sharoitida takoful fondlari yashil loyihalar (quyosh stansiyalari, suv tozalash inshootlari, organik qishloq xo'jaligi)ni sug'urtalash orqali iqlim risklarini boshqarishga xizmat qiladi.

Jahon bozorida takaful aktivlari 2024-yilda \$40 mlrd dan oshgan. Misol uchun Malayziyani oladigan bo'lsak takaful bozori 20% o'sishga erishilgan. Hozirgi vaqtga qadar takoful fondlaridan foydalanib kelishmoqda. Undan tashqari Indoneziya, Qatar, Eron davlatlari ham takoful fondlaridan samarali foydalanib, ko'riladigan moliyaviy zararlardan saqlanib kelinmoqda. 2032-yilga borib yashil takoful bozori \$74 mlrd ga yetishi, ayniqsa past daromadli mamlakatlarda bu ko'rsatgich ko'tarishi kutilmoqda.

Jahon yashil iqtisodiyotda takoful fondlari iste'molchilar oldida atrof-muhitga do'stona munosabat va barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari sifatida paydo bo'ldi. Undan tashqari ko'pgina sanoat tarmoqlarining globalashayotgan iqtisodiyotda kichik va o'rta biznes vakillarini yashillashtirish amaliyotini targ'ib qilish usuli sifatida ushbu standartlarni qabul qilishini boshladi. Yashil iqtisodiyotda takoful fondlari barqarorlik standartlari sifatida ham tanilgan, bu standartlar sotib olingan mahsulotlar atrof-muhitga va ularni ishlab chiqaruvchi odamlarga zarar yetkazmasligini kafolatlaydigan maxsus qoidalar tizimidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Renat Bekkinning 2022-yildagi "Finansovye issledovaniya" jurnalida "Yashil sukuk: global tendensiyalar va Rossiya uchun imkoniyatlar"³ nomli maqolasida Rossiya iqtisodiyotida yashil moliyani joriy etish bo'yicha birinchi jiddiy tahlillardan biri bo'lib, islomiy moliyani an'anaviy vositalar bilan birlashtirishni taklif etadi. O'zbekistonda yashil moliya rivojlanayotganini hisobga olsak ushbu maqola foydali hisoblanadi. Undan tashqari foydalanuvchilar uchun ya'ni iqtisodchilar, bankirlar va siyosatchilar uchun amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

UNEP FI (BMT Atrof-muhit dasturi Moliya tashabbusi) 2024-yildagi hisobotlariga ko'ra yashil sug'urta mahsulotlari iqlim risklarini 10-20% ga kamaytirishi mumkin (case study'lar asosida), chunki ular risklarni baholashni yaxshilaydi va ekologik loyihalarni rag'batlantiradi.⁴ Masalan, net-zero sug'urta orqali emissiyalarni qisqartirish global iqtisodiyotda trillion dollar tejamkorlikka olib kelishi ko'rsatib o'tilgan. UNEP FI hamkorligida tabiatga oid risklarni boshqarish bo'yicha ishchi guruh "Insuring a resilient nature-positive future" (Chidamli tabiat-musbat kelajakni sug'urtalash) qo'llanmasi chiqarildi. Bu orqali iqlim risklarini kamaytirish mumkin. Masalan, past emissiyali transport uchun chegirmalar orqali emissiyalarni 10-15% ga qisqartirib, tabiatga asoslangan yechimlar orqali falokatlarini yumshatish mumkin. 2030-yilga kelib tabiat holatini yomonlashishini to'xtatib, keyin tiklash va yaxshilash maqsadini qo'llab-quvvatlash, ekotizimlarni sug'urtalash (masalan, marjon riflari, mangrov o'rmonlari sug'urtasi), parametric sug'urta mahsulotlari, tabiatga asoslangan yechimlar (nature-based solutions) uchun yangi sug'urta turlari rivojlantirish, sug'urtachilarga tabiat yo'qotilishining oldini olish va chidamli iqtisodiyot qurishda faol rol o'ynashga chaqiradi. Sug'urta zanjirida tabiat yo'qotish risklarini kamaytirish, biologik xilma-xillikni saqlash orqali iqlim shoklarini (masalan, o'rmon yong'inlari) yumshatishi mumkinligiga alohida urg'u berib o'tilgan.

Islamic Financial Services Board (IFSB) - Islom moliyaviy xizmatlari bo'yicha xalqaro standartlarni ishlab chiqish organidir. 2023-yilda IFSB o'zining yillik "Islamic Financial Services Industry (IFSI) Stability Report 2023"

1 „United Nations Environment Programme (UNEP)“. 2016-yil 27-mart.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori

3 eLibrary.ru –saytidan olingan

4 <https://www.unepfi.org/themes/climate-change/2024-climate-risk-landscape/>



hisobotini e'lon qildi (2023-yil 15-avgust)⁵. Bu hisobotda takoful fondlari segmentining o'sishi, barqarorligi va global ulushi batafsil tahlil qilinadi. Takoful aktivlari asosan "takaful contributions" (hisob-kitoblar yoki to'lovlar) orqali o'lanadi, chunki bu segmentda aktivlar daromad va fondlar shaklida hisoblanadi. Takoful fondlari global IFSI (islomiy moliyaviy xizmatlar sanoati) ichida eng kichik ulushga ega, ammo o'sish sur'ati yuqori hisoblanadi. Takoful aktivlari 2022-yilda \$55 mlrd.ga yetdi, yashil investitsiyalar ulushi 12% yetganini ko'rishimiz mumkin. Takoful segmentining moliyaviy ko'rsatkichlari oldingi yillarga nisbatan yaxshiroq, global standartlar (PSI - Principles for Sustainable Insurance) va konvetsional sug'urta bilan taqqoslaganda barqarorlik yuqori hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qiyosiy va statistik tahlil usullari qo'llanilib, 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini qo'llab-quvvatlash asosida tahlillar amalga oshirilgan. Ushbu tahlil jarayonida yashil iqtisodiyotni takaful fondlari bilan o'zaro bog'lash, foizlar asosida baholash, taqqoslash, ko'rilishi mumkin bo'lgan moliyaviy zararlarni takoful fondlari orqali qoplash bosqichlarini chuqur o'rganish metodlari qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, takaful fondlarida risklarni samarali boshqarish, islom sug'urta xizmatlari sifatini oshirish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda takoful fondlari darajasini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va ko'rsatib o'tilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil takoful (green takaful) - iqlim risklarini boshqarish, qayta tiklanadigan energiya va ekologik loyihalarni sug'urtalashga yo'naltirilgan model bo'lib, asosan musulmon mamlakatlarda rivojlangan.

Takoful fondlari 47 davlatda mavjud, ulardan yashil takoful ulushi 18% ni tashkil etadi (IFSB, 2025). Takoful fondlarining asosiy rivojlanishi Osiyo va Yaqin Sharqda mamlakatlarda iqlim o'zgarishiga va zaif mintaqalarda (qurg'oqchilik, suv toshqinlari) ko'proq qo'llanilishi hech kimga sir emas. Takoful fondlarining yashil iqtisodiyotdagi o'rni eng muhim mezonlardan biri hisoblanishi bejizga emas.

Quyidagi jadvalda eng faol qo'llanilgan davlatlarni va ularning tajribasini ko'rsatgan⁶

Davlat	Qo'llanilish yili va hajmi	Asosiy misollar va natijalar	Manba va izoh
Malayziya	1982-yildan (takaful), 2018-yildan yashil (VBIT dasturi)	- Yashil takoful siyosatlar: Quyosh panellari va yashil qurilish loyihalarini sug'urtalash. - Natija: Aholi 20% ni takoful bilan qoplangan, 2027-yilga 40% ga yetkazish reja (MTA, 2025). - GET-Green dasturi: Maktablarda ekologik ta'lim va upcycling loyihalari.	UNEP FI, 2025
Pokistan	2005-yildan, 2020-yildan iqlim takofuli	- Salam Takaful: Qishloq xo'jaligi (paxta, bug'doy) uchun indeksli takoful (qurg'oqchilikka qarshi). - Natija: 65% aholi qishloq xo'jaligiga bog'liq, zararlar 30% kamaygan; GDPga 19% hissa. - Global Shield dasturi orqali 150+ mamlakat bilan hamkorlik.	Jahon Banki, 2025
Indoneziya	2008-yildan, 2019-yildan iqlim	- Iqlim zaif aholini himoya: Suv toshqinlari va qurg'oqchilikka parametrik takoful. - Natija: 1 mlrd musulmon aholining 2% dan kam qoplangan, lekin o'sish 15% yillik; qayta tiklanadigan energiya loyihalari sug'urtalangan.	IDF, 2025
Saudiya Arabistoni	1979-yildan (birinchi), 2022-yildan yashil	- Eng katta bozor (44% global ulush, \$4.3 mlrd). - Yashil sukuk va takoful: Neftdan qayta tiklanadigan energiyaga o'tishda sug'urta. - Natija: GCC mintaqasida 62% premiumlar; iqlim risklari 25% kamaygan.	IFSB, 2025
Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)	1979-yildan, 2021-yildan raqamli yashil	- Takaful Emarat: Raqamli takoful ilovalari orqali yashil transport (elektromobillar) sug'urtalash. - Natija: Reyting 84% o'sish; Shariat + ESG mosligi.	RGA, 2025
Bangladesh	2010-yildan, 2023-yildan kengaytirilgan	- Past daromadli aholiga iqlim takofuli: Suv toshqinlari va siklonlarga qarshi. - Natija: Aholi 1 mlrd+ mamlakatlarda qoplash 2% dan 5% ga oshgan; UNDP Alliance orqali.	UNDP IRFF, 2025

5 chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpgclclefindmkaj/https://www.ifs.org/wp-content/uploads/2023/10/Islamic-Financial-Services-Industry-Stability-Report-2023_En.pdf

6 Ma'lumotlar Jahon Banki, UNDP va UNEP hisobotlaridan olingan.



O'zbekistonda yashil takoful modellari bo'yicha empirik tadqiqotlar yo'q. Quyidagi 1-jadvalda takoful fondlari va yashil iqtisodiyotning integratsiya mexanizmi⁷ ko'rsatib o'tilgan.

Takoful prinsipi	Yashil iqtisodiyot talabi	Integratsiya mexanizmi
O'zaro kafolatlash	Ijtimoiy-iqtisodiy adolat	Qishloq xo'jaligi takofulida organik fermerlar jamlanmasi
Investitsiyalar shariatga moslash	ESG mezonlari	Faqat yashil sukuk va loyihalarga investitsiya
Surplus taqsimoti	Barqarorlik	Foyda - yashil daraxt ekish loyihalariga yo'naltiriladi

ESG mezonlari - bu Environment (Atrof-muhit), Social (Ijtimoiy) va Governance (Boshqaruv) sohasidagi barqarorlik va mas'uliyatli investitsiya standartlarining qisqartmasidir. Ular kompaniya, loyiha yoki moliyaviy mahsulotning uzoq muddatli barqarorligi va jamiyatga ta'sirini baholash uchun ishlatiladi.

Takoful bu - Shari'at tamoyillariga asoslangan kooperativ sug'urta shakli bo'lib, unda ishtirokchilar (mijozlar) birgalikda fond tuzadi va xavf-xatarlarni taqsimlaydi. Bu an'anaviy sug'urtadan farqi - foizsiz va adolatli bo'lishidir.

Iqlim o'zgarishi global muammo bo'lib, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi, suv resurslari va infratuzilmani jiddiy tahdid qilmoqda. Masalan, global isish hosil hosildorligini 8-10% ga kamaytirishi mumkin (Pakistan misolida). Takoful fondlari bunday risklarni yumshatish uchun samarali vosita, chunki u musulmon aholisi ko'p bo'lgan mintaqalarda madaniy va diniy jihatdan qabul qilinadi.

Investitsiyalarni shariat talablariga moslashtirish (Islomiy moliya) - bu nafaqat foyda ko'rish, balki axloqiy va diniy tamoyillarga amal qilish demakdir. Islom moliyasida pul o'z-o'zidan qiymat yaratmaydi, u faqat real aktivlar bilan bog'langandagina halol hisoblanadi. Kompaniya halol sohada bo'lsa ham, uning qarzlari va daromadlari shariat mezonlariga mos kelishi kerak.

Ijtimoiy-iqtisodiy adolat - bu jamiyatda moddiy va nomoddiy boyliklarning, imkoniyatlarning hamda huquqlarning insonlar o'rtasida adolatli taqsimlanishini anglatuvchi tushunchadir. Bu faqatgina "Hamma bir xil daromad olishi kerak" degani emas, balki har bir shaxsning munosib hayot kechirishi uchun teng sharoitlar yaratilishidir. Bu tamoyilga ko'ra, insonning muvaffaqiyati uning qaysi oilada tug'ilgani yoki ijtimoiy kelib chiqishiga emas, balki uning qobiliyati va mehnatiga bog'liq bo'lishi kerak. Iqtisodiy adolat jamiyatda o'ta boylar va o'ta qashshoqlar o'rtasidagi farq (Gini koeffitsienti orqali o'lchanadi) juda katta bo'lmasligini nazarda tutadi. Adolatli jamiyatda kutilmagan vaziyatga tushib qolgan insonlar davlat va jamiyat tomonidan himoya qilinadi.

Quyidagi 1-chizmada⁸ yashil takoful fondlarining mahsulotlari keltirib o'tilgan.



Iqlim risklari takofuli – qurg'oqchilik, suv toshqini (masalan, Farg'ona vodiysi paxtachilari uchun), paxta 1 gektarga 10-11 ming m³ suv talab qiladi, ammo Sirdaryo daryosining oqimi 2050-yilga 6-10% ga kamayishi kutilmoqda. 2023-yilda havo qurug'i paxta hosiliga 15-20% zarar yetkazgan.

Agarda takoful fondi tashkil etilsa, har bir fermer yiliga 1-2 mln so'm hissa qo'shadi. Bu yig'ilgan jami fond 1 mlrd so'm deb oladigan bo'lsak (davlat subsidiyasi 30%), qishloq ho'jaligi zarar ko'rganda takoful fondidan

⁷ Muallif tomonidan tuzilgan.

⁸ Muallif tomonidan chizilgan.



har bir hektarga 3-5 mln so'm to'lanadi. Bu fermerning daromadini tiklaydi va yangi suv tejovchi navlarni (Namangan-77 o'rniga S-8296) ekishga yordam beradi.

2030-yilga kelib 1.4 mln dehqon (shu jumladan Farg'ona) iqlim prognozlaridan foydalanadi va takoful bozori 10-15% o'sishiga erishish mumkin.

Yashil transport takofuli – elektromobillar va bioyoqilg'i transporti. Dubay (Birlashgan Arab Amirliklari)da DTC kompaniyasi gibrid taksilarni takoful fondlari bilan himoya qiladi. Loyiha xayriya fondlarga (Takaful Drivers Fund) hissa qo'shdi va emissiyalarni kamaytirdi. Batareya, zaryadlash stansiyalari va avariya xavf-xatarlarini himoya qilish uchun qaratilgandir. Shu o'rinda O'zbekistonda yashil transport rivojlanmoqda. Toshkentda Shota Rustaveli ko'chasi bo'ylab "Yashil transport yo'lagi" loyihasi uchun kam uglerodli transport harakati tashkil etilgan. Takoful fondlari bu yerda EV va jamoat transportini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Toshkentda EV egalari chegirmali takoful — batareya xavf-xatarlarini qoplash, fondlarning 10% i velosiped infratuzilmasiga sarflanishi mumkin.

Qayta tiklanadigan energiya takofuli – quyosh panellari o'rnatish xavfini sug'urtalash. Takoful bu yerda investorlar ishonchini oshiradi, past foizli moliyalashtirish imkonini beradi va O'zbekiston kabi mamlakatlarda barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Quyosh stansiyasining kunlik quvvati 80% dan past tushsa - avtomatik to'lov amalga oshiriladi. Minglab ish o'rinlari yaratiladi.

O'zbekiston 2025-yilni "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb e'lon qildi. Bu yil doirasida yashil loyihalar, shu jumladan qayta tiklanadigan energiya va iqlim moslashuvi bo'yicha 100 milliard so'm ajratildi, xalqaro grantlar (masalan, Global Ekologik Fonddan 6,5 mln dollar) va investitsiyalar (7 milliard dollarlik yangi energiya loyihalari) jalb etildi. Farg'ona vodiysi - mintaqaning eng serhosil hududi bo'lib, qurg'oqchilik, suv tanqisligi va energiya talabi oshishi kabi iqlim risklariga duch kelmoqda. Bu yerda paxta yetishtirish, qishloq xo'jaligi va sanoat rivojlanmoqda, ammo yashil energiya ulushi hali past hisoblanadi.

"Yashil Farg'ona" takoful fondi — bu hipotetik, ammo real asoslangan pilot loyiha taklifi bo'lib, Farg'ona vodiysidagi yashil loyihalarni (quyosh energiyasi, suv tejash, chiqindilarni qayta ishlash) moliyaviy himoya qilishga qaratilgan. U Shari'at tamoyillariga asoslangan takoful (islomiy sug'urta) mexanizmi orqali ishtirokchilar (fermerlar, biznes, hokimiyat) fond tuzadi va risklarni taqsimlaydi. Takoful fondi O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyotga o'tish" strategiyasi (PQ-436, 2022) va Markaziy bankning ESG (Atrof-muhit, Ijtimoiy, Boshqaruv) standartlariga mos keladi. Farg'onada 300 MVt quvvatli energiya saqlash tizimi (BESS) ishga tushdi va 2,5 GVt loyihalar qurilmoqda (2024-2025yillar). Takoful hali pilot bosqichda, ammo UNDP va IsDB (Islom Rivojlanish Banki) hamkorligida joriy etilishi mumkin.

Fondni tashkil qilish 6-12 oy ichida amalga oshirilishi mumkin, davlat -xususiy sheriklik (DXSh) asosida. "Yashil Farg'ona" takoful fondning maqsadi organik paxta yetishtiruvchini qurg'oqchilikdan himoya qilish va mahalliy aholi (30 mingdan ortiq) uchun ish o'rinlarini yaratish, daromadlarni oshirish hisoblanadi. 1 gektar uchun 150 000 so'mdan 200 000 so'mgacha yilliga badal to'lanadi. Farg'ona quyosh stansiyasi sukuklariga daromad 6% yillik beriladi. Natijada yog'ingarchilik indeksi (Uzhydrometdan) 100 mmdan kam bo'lsa - hektarga 3-5 mln so'm (24 soat ichida) to'lov amalga oshiriladi. Bu hosilni tiklash va suv tejovchi quyosh nasoslarini o'rnatishga yordam beradi. Fondning 10% i quyosh panellari (Farg'onada 300 MVt BESS bilan integratsiya) uchun sarflanadi. Emissiyalarni 200 ming tonna CO₂ ga kamaytirishga erishiladi. Fermerlar daromadini 20% oshiradi, ayol fermerlar (21%) uchun maxsus chegirmalar beriladi.

Ushbu modelning matematik asosi, takoful fondi balansi quyidagicha ifodalanadi:

$$F_t = C_t + I_t - P_t - R_t \quad F_t = C_t + I_t - P_t - R_t$$

- $F_t F_t$ – t-davrdagi fond hajmi
- $C_t C_t$ – ishtirokchilar badallari (premium)
- $I_t I_t$ – shariatga mos investitsiya daromadi
- $P_t P_t$ – to'lovlar (claims)
- $R_t R_t$ – qayta sug'urtalash (retakaful) xarajatlari

Yashil cheklov: $I_t I_t$ faqat ESG reytingi $\geq$ BBB bo'lgan loyihalarga yo'naltiriladi.

Fondni shakllantirish bosqichlarini qiyudagi 2-jadvalda⁹ ko'rishimiz mumkin.

Bosqich	Amallar	Mas'ul
1. Tahlil	Iqlim risklarini baholash (IPCC ma'lumotlari)	Sug'urta kompaniyasi
2. Badal hisoblash	$C_i = \frac{\sum Risk_i \cdot Prob_i}{\sum Risk_i \cdot Prob_i}$	Aktuariy
3. Investitsiya	Yashil sukuk chiqarish	Takoful operatori
4. Surplus taqsimoti	70% – ishtirokchilarga, 30% – yashil loyihalarga	Shariat kengashi

9 Muallif tomonidan tuzilgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda yashil takoful fondlari endigina shakllanayotgan, ammo katta imkoniyatlarga ega sohalardan biridir. Takoful – bu shariatga asoslangan adolatli, o'zaro yordam va xavflarni taqsimlashga asoslangan sug'urta tizimidir.

Yashil takoful fondlari yashil iqtisodiyotning rivojlanayotgan sektori bo'lib, iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy resurslarni axloqiy nuqtai nazardan ko'plab afzalliklarni taqdim etadi. Shariatga mos moliyaviy yechimlarga talab ortib borishi fonida, yashil takoful fondlari yashil iqtisodiyotning kelajagini shakllantirishda va global iqtisodiy farovonlikka hissa qo'shishda tobora muhim rol o'ynashga xizmat qiladi desak adashmagan bo'lamiz.

Birinchi taklif - O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi huzurida Yashil Takoful kengashi tashkil etilsin. O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi huzurida "Yashil Takoful Kengashi" (YTK) tashkil etish orqali islomiy sug'urta (takoful) vositalarini yashil iqtisodiyot va iqlim risklarini boshqarish maqsadlariga yo'naltirish. Kengash davlat-xususiy sheriklik asosida yashil loyihalarni moliyalashtirish, takoful mahsulotlarini standartlashtirish va xalqaro tajribani joriy etishni ta'minlaydi.

Ikkinchi taklif - Takoful operatorlari uchun soliq imtiyozlari – yashil investitsiyalar ulushi 50% dan yuqori bo'lsa, QQSdan ozod qilinsin. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o'zgartirishlar kiritish orqali takoful operatorlari (islomiy sug'urta kompaniyalari) uchun QQS (qo'shilgan qiymat solig'i, 12%) imtiyozlarini joriy etish. Takoful operatorining aktivlari yoki investitsiyalaridagi yashil loyihalar ulushi (quyosh/shamol energiyasi, yashil transport, ekologik qishloq xo'jaligi) 50% dan yuqori bo'lsa. Bu imtiyoz 3-5 yil muddatga beriladi va yashil iqtisodiyotni rag'batlantirish, emissiyalarni kamaytirish va barqaror moliyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Taklif O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" (PQ-436, 2022) va 2025-yil "Atrof-muhitni asrash yili"ga mos keladi.

Uchunchi taklif - Mahalliy universitetlarda "Yashil aktuarlik" yo'nalishi ochish. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshida "Yashil aktuarlik" (Green Actuarial Science) bakalavriat va magistratura yo'nalishini Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU), Toshkent moliya instituti (TMI) va Toshkent islom iqtisodiyoti va moliyasi universiteti (TIIEFU) kabi yetakchi oliygohlarda ochish. Yo'nalish takoful, yashil sug'urta, iqlim risklari va ESG moliyasini hisoblashga ixtisoslashgan mutaxassislar tayyorlaydi.

Sug'urta kompaniyalarida takoful fondlarining integratsiyasi orqali xizmatlar qulay va arzon bo'ladi. Aholining takoful fondlariga bo'lgan ishonchini oshishi va sug'urta kompaniyalarining barqaror ishlashini ta'minlaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmoni. 2023-yil 11-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 04-oktabrdagi "2019 - 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli qarori. 2019-yil 04-oktyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-108-son qarori. 2024-yil 1-mart.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-son qarori.
5. Baydaulet E.A. "Islom moliya asoslari", "O'zbekiston" Toshkent 2019y.
6. Jurayev B. (tarj.) "Islomiy moliya va bank tizimi", "O'zbekiston" Toshkent 2019y
7. Bekken R.I. "Islom iqtisodiy modeli va zamon", "O'zbekiston" Toshkent 2019y
8. <https://www.senat.uz/> - O'z. Res. Oliy Majlisi Senatning rasmiy sayti.
9. Mirziyoyev Sh., 2019 yil 10 iyuldagi sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilish. <https://sputniknews-uz.com/>
10. www.islommoliyasi.uz;



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
